

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA AVTORITAR USLUBNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Normo'minova Gulhayo Shavkat qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrası assistenti

Norqobilova Hilola Zohid qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqola o'qituvchi faoliyatida avtoritar uslubning namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Avtoritar uslub ta'lim jarayonida o'qituvchining boshqaruvchi rolida kuchliroq namoyon bo'lishi, o'quvchilarning mustaqilligini cheklash va qat'iy intizom talablariga asoslanishi bilan ajralib turadi. Maqolada avtoritar uslubning asosiy belgilari, jumladan, buyruq va ko'rsatmalar asosida ishlash, o'quvchilarning ishtirokini cheklash, kommunikatsiyaning past darajasi hamda innovatsiyalarga qarshi munosabat kabi tomonlari chuqur o'rganilgan. Bundan tashqari, avtoritar uslubning o'quvchilar faoliyatiga va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri alohida ta'kidlangan. Maqola zamonaviy ta'limda demokratik va hamkorlik uslublarining afzalligini nazarda tutib, o'qituvchilarga o'z faoliyatlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: avtoritar uslub, o'qituvchi faoliyati, ta'lim jarayoni, intizom, demokratik uslub, o'quvchilar faolligi.

Annotation: The article is devoted to the analysis of the features of the manifestation of the authoritarian style in the work of a teacher. The authoritarian style is characterized by a stronger manifestation of the teacher's managerial role in the educational process, restriction of student independence and strict discipline requirements. The article deeply studies the main features of the authoritarian style, including work based on orders and instructions, restriction of student participation, low

level of communication and anti-innovation. In addition, the negative impact of the authoritarian style on student activity and their personal development is emphasized. The article is aimed at providing teachers with practical recommendations on improving their activities, taking into account the advantages of democratic and collaborative styles in modern education.

Keywords: authoritarian style, teacher activity, educational process, discipline, democratic style, student activity.

Pedagogik faoliyat ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bu faoliyat o'qituvchi va o'quvchilar munosabatidan tashkil topgan. Munosabatlarning yo'lga qo'yilishi esa o'qituvchi tomonidan amalga oshiriluvchi boshqaruv uslublariga asoslanadi. Boshqaruv uslublari orasida "qattiq intizom"ga tayanuvchi avtoritar uslub alohida ahamiyatga egadir. Avtoritar boshqaruv uslubi yetakchilikning yuqori markazlashuvi, bir kishilik boshqaruvning ustunligi bilan tavsiflanadi. Ushbu uslubni qo'llayotgan shaxs faqat o'zini asosiy o'rinda, qolganlarni esa o'z tavsiya, buyrug'iga binoan faoliyat yuritishini talab etadi. O'qituvchi faoliyatida avtoritar uslubni qo'llash davomida o'zida qo'pollik, do'q-po'pisa, qo'rqitish, cho'chitish emotsiyalarini aks ettiradi. Bu vaziyat bola psixik holatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda o'qituvchiga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otadi, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni pasayishiga, fanlarga bo'lgan qiziqishlarni susayishi va ijtimoiylashish jarayonida muommolarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan ularni o'rganish, chuqur tahlil qilish hozirgi davr tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.¹

O'qituvchi faoliyatida avtoritar uslubning namoyon bo'lishi o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, bu uslub o'quv jarayonini tashkil etishda va o'quvchilar bilan muloqotda aniq belgilar bilan ifodalanadi. Avtoritar uslub o'qituvchining boshqaruvchi

¹ Normo'minov, S. ., & Xolboyeva, S. (2025). BULUNG'UR SHEVASINING AYRIM JIHATLARI HAQIDA. *Modern Science and Research*, 4(2), 15–17. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65421>

rolini kuchaytiradi va o'quvchilarning mustaqil fikrlash va harakat qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Avtoritar uslubni boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'llash ularni oson boshqarish, darsdan keyingi faoliyatlarini ham nazorat qilish imkoniyatlarini yaratadi. Ammo ushbu uslubdan haddan ziyod foydalanish endi o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tgan bolalarga salbiy ta'sirini ham ko'rsatmay qolmaydi. Chunki bu yoshdagi bolalar ruhiy va hissiy rivojlanish bosqichida bo'lishadi. Davomiy o'rnatilgan qattiq nazorat bola ijodkorligini, erkin fikr yuritish qobiliyatini cheklab, qo'rquv va stressni oshiradi, o'qituvchi bilan hissiy uzoqlikni hosil qiladi.

Avtoritar uslub nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchining ruhiy va kasbiy salomatligiga ham jiddiy zarar keltiradi. O'qituvchining asab tizimiga ziyon keltirib, hissiy charchoqni kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida avtoritar uslubdan samarali foydalanish quyidagi ijobiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchi o'quvchilar oldiga qat'iy va aniq talablar qo'yish orqali ular o'rtasida tartib-intizom, samarali nazoratni yo'lga qo'yadi.

- o'qituvchi o'quvchilar uchun zarur chegaralarni belgilash orqali ularning xavfsizligini ta'minlaydi.

- o'qituvchi o'quvchilarni mukofotlash va jazolash tizimlarini yo'lga qo'ygan holda motivatsiya yaratishi mumkin. Biroq, bu holatni ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish lozim. Chunki haddan tashqari jazolash o'quvchilarni ijtimoiy va emotsional jihatdan zaiflashtirishi mumkin.

- bu uslubda o'qituvchi ustuvorlikni qo'lga olgan bo'lib, faoliyati davomida qanday maqsad qo'ysa unga erishish uchun qat'iy va to'xtovsiz mehnat qiladi.

- o'qituvchi dars jarayonini olib borishda har bir bosqichga vaqtni taqsimlaydi.

- o'quvchilarga o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissi shakllantiriladi.

– yuqoridagi xususiyatlarning shakllanishi natijasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi mumkin.

- O‘qituvchi o‘quvchilarga aniq buyruqlar beradi va ulardan shu buyruqlarga qat’iy rioya qilishni talab qiladi.

- O‘quvchilarning o‘z fikr-mulohazalarini bildirishga imkon berilmaydi yoki ular e’tiborga olinmaydi.

- Dars jarayoni o‘qituvchining oldindan belgilangan rejasiga qat’iyan rioya qilinadi.

Ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishidagi asosiy talab o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi “sog‘lom munosabat”ni yo‘lga qo‘yilishidir. Sog‘lom munosabat-hurnat, ishonch, samimiyat va tenglikka asoslangan munosabat hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z faoliyatida avtoritar uslubni namoyon qilar ekan nazorat, talabchanlik bilan bir qatorda sog‘lom munosabatning tarkibiy qismlarini ham mujassamlashtirishi zarur. Avtoritar uslubning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun o‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkil qilish davomida muvozanatni saqlashi, talabchanlik va qo‘llab-quvvatlashni uyg‘unlashtirishi lozim. Bu o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Avtoritar uslub o‘qituvchining boshqaruvchi rolini kuchaytiradi va o‘quvchilarning faolligini cheklaydi. Ushbu uslub o‘quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, chunki ularning mustaqilligi, ixtiyorliligi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan. Zamonaviy ta’limda esa demokratik va hamkorlik uslublarining afzalligi ko‘proq tan olinadi, chunki ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularda mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007.
4. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
5. Normo‘minov , S. ., & Xolboyeva, S. (2025). BULUNG‘UR SHEVASINING AYRIM JIHATLARI HAQIDA. *Modern Science and Research*, 4(2), 15–17. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65421>
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
7. Kaykovus. Qobusnoma / Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
8. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.